

JAMOANI SHAKLLANTIRUVCHI TRENING MASHG'ULOTLARINING

NAZARIY ASOSLARI

Mamaradjabova B. A.

TerDU Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Allamov Jasur

Angor tumanidagi 20-sonli mäktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya

Trening mashg'ulotlari bugungi kunda interfaol ta'limning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Trening mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi bo'yicha ko'plab o'zbek olimlari va xorijiy tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar. Trening mashg'ulotlarining amaliyotga kiritilishi ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan biri K.Levinning nomi bilan bog'liq. Olimning fikricha, trening mashg'ulotlarining g'oyasi shundan iboratki, insonlar jamiyatda hayot va mehnat faoliyatlarini olib boradilar, o'zaro xamkorlik qilish davomida bir-biriga ta'sir o'tkazadilar, biroq o'zlarini chetdan turib baholay olmaydilar. K.Levin aynan treninglarda inson o'ziga boshqa shaxslarning nazari bilan qarashi, o'z xatti-harakatlarini baholashi, shaxsiy ustakovkalarini o'zgartirishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi.

Kalit so'z: Trening, mashg'ulot, kun, interfaol, ta'lim, usul, nazariya.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining komil shaxs va yetuk ishbilarmon kadr bo'lib shakllanishida jamoaning o'rni va axamiyati beqiyosdir. Mamlakatimizda keyingi vaqtarda trening mashg'ulotlarining ta'limiy, diagnostik va rivojlantiruvchi imkoniyatlari psixolog-mutaxassislardan tashqari, pedagoglar, huquqshunoslar, psixoterapevtlar, boshqaruv sohasi vakillarining xam e'tiborida bo'lib kelayotganligini ko'rsatishimiz mumkin[1].

XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbiri manzil" nomli ilmiy asarining maxsus "Amuzish va parvarish modrasas farzand" (Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash) bo'limida o'quvchilarga jamoali o'qitish tizimining mohiyati haqida bilimlar berilgan[2].

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatida jamoani shakllantirishning bir necha bosqichlari mavjud. Bolalar jamoasining shakllanishining 4 bosqichi mavjud. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi xamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Albatta talab bugungi kundan kelib chiqqanligi, zamonaviy ruhda bunyod bo'lgani, qadriyatlarga amal qilingani, o'gitlar zamirida shakllangani, shaxsni rivojlanishiga tom ma'noda ijobiy ta'sir ko'rsatishi talabning mohiyatini ochib beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jarayonni quyidagicha bayon etish mumkin[3]:

Tahlil va natija. Demak, **birinchi bosqichda** talab faqat o‘qituvchilar tomonidan qo‘yiladi. Bu boshlang‘ich nuqta. Bunda hali jamoa shakllanmay, tashkil etiluvchi birlik hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan talablarga e’tiborsiz qaraydilar[4].

Jamoani shakllantirishning **ikkinchi bosqichida** jamoa faolining o‘qituvchi talabini qo‘llab-quvvatlash xamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan ifodalandi. Endilikda o‘qituvchi tomonidan jamoa shakllangan va endigi navbatda pedagog jamoada paydo bo‘lgan va u bilan aloqador muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zi hal qilmaydi[5].

Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy va amaliy ishlar olib borib bu ishga uni jalb etadi. Bu bosqichda jarayon biroz murakkablashib boradi, ya’ni jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o‘ta boshlaydi. Bu bosqichda tadbirlar o‘tkazishga tayyorgarlik, uni o‘tkazish xamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamaoa xususiyatlarining ijobiy o‘sishiga yordam beradi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining axamiyati katta[6].

Shu o‘rinda A.S.Makarenko shunday degan edi: “Jamoa faoli bu-jamoa vijdoni”¹. To‘g‘ri jamoa faoli bir qancha imtiyozlarga ega bo‘lishi bilan birga, unnig zimasida vazifalar xam o‘z o‘rniga egadir.

Jamoani rivojlantirishning uchinchi bosqichi anchagina sermahsul bosqich. A.S.Makarenko fikriga qarab tashxis qiladigan bo‘lsak, bu bosqichda jamoa faol bo‘limganlar bilan ishlaydi, ya’ni, ayrim o‘zini chetga olib qochuvchi, injiq shaxslar”ga talab qo‘ya boshlaydi. Bu bosqichda ijtimoiy fikr muhim axamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi aniq maqsad yo‘lidagi harakatlarini izchil olib borsagina ijtimoiy fikrga erishishi mumkin². Shu maqsadda tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a’zolari xatti-harakati jamoa bo‘lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma’ruzalar uyushtiriladi, o‘quvchilar o‘rtasida samarali ommaviy axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g‘oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ‘iboti tashkil qilinadi[7].

O‘qituvchi jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, ularda ijodiy mahoratni shakllantirish uchun samarali metod va uslublardan foydalanadi. Jamoani shakllantirishning **uchinchi bosqichi** haqidagi ko‘rsatkichlardan xulosa qilinadigan bo‘lsa, pedagog faqatgina jamoa faoligagina talab qo‘ymasdan, aksincha jamoaning barcha a’zolariga axloqiy mazmundagi talabni qo‘ya boshlaydi[8].

Jamoani shakllantirishning **to‘rtinchi bosqichida** jamoaning barcha a’zolari jamoaning vazifalaridan kelib chiqqan holda o‘z-o‘ziga maqsad qo‘ya boshlaydi. Bu bosqichda

¹ Beknazarova L., Maxmudova M., Shodiyev B. Ijtimoiy-psixologik trening. - Toshkent, “Tafakkur qanoti”, 2016-yil

² Лидерс, А.Г. Психологический тренинг с подростками: учебное пособие / А.Г. Лидерс. – М.: Академия, 2001.

jamoaning hayoti va faoliyati har biz a'zosi uchun ehtiyojga aylanib boradi. To'rtinchı bosqichdagi amalga oshiriladigan vazifalar ancha mururakkab va mas'uliyatlidir[9].

Guruhdha xamkorlikda ishslash qoidalari trening qatnashchilari bilan birga shakllantiriladi. "Intizomga qat'iy rioya qilish". Bunda har bir guruh a'zosi mashgulotga o'z vaqtida kelishi, o'z vaqtida ketishi kerakligi zarurligini his etishi lozim va bunga qat'iy amal qilishi kerak.

"Maxfiylik". Trening jarayonida bayon etilgan biror-bir guruh a'zosining hayotiga oid ma'lumotlar, fikrlar, hissiyotlarning ifodalanishi, o'yin va mashqlarni bajarish jarayonida noqulay holatlarga tushib qolishlar trening doirasidan chetga chiqmasligi lozim. "Shu yerda va hozir". Guruhdagi muomala-munosabat mashg'ulot jarayoniga bevosita aloqador, ya'ni hozirgi zamonga bog'liq bo'lishi zarur. Shuningdek, trener xam har bir ishtirokchi xam barcha muammolarini unutib, o'zini faqat "shu yerda va hozir" holatida his qilishi lozim. "Fikrni birinchi shaxs tomonidan bayon etish". Bunda doimo mulohazalar "Menimcha...", "Mening fikrimcha...", "Mening o'ylashimcha..." qabilida bayon etilishi maqsadga muvofiqligi uqtirilishi kerak[10].

"Yagona mikrofon". Biror ishtirokchi o'z fikrini gapirayotganda, boshqalar unga diqqat bilan qulq solishi va uning gapini bo'lmasligi, bir-birini hurmat qilishlari lozim. "Treningning boshidan oxirigacha qatnashish". Bu o'z navbatida ishtirokchilarda mas'uliyatni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan qoidadir. Agar ishtirokchilardan kimdir biror kun, hatto biror soat mashg'ulotni qoldiradigan bo'lsa, bu nafaqat uning o'zi, balki guruh uchun xam, trener uchun xam mashg'ulot samarasining pasayishiga olib keladi. "Vaqtni tejash" yoki "Reglamentga rioya qilish"[11].

Guruh ishtirokchilari trening mashg'uloti davomida gaplarini imkon qadar qisqa, lo'nda ifodalashi, mavzu doirasidan chetga chiqib ketmasligi lozim. "Shaxsni baholamaslik". Har bir ishtirokchi o'z fikr mulohazalarini, hissiyotlarini bayon qilishi mumkin, biroq bunda boshlovchi va qolgan ishtirokchilar hikoyadagi vaziyatnigina muhokama qilishlari va fikr bildirgan tinglovchining o'sha paytdagi xulq-atvorini baholamasligiga e'tibor qaratiladi[12]. Demakki, jamoani shakllanishida boshlangich ta'lim o'qituvchisining o'rni katta. Zero, pedagog jamoani shakllantirishni ijobjiy yo'naltirsa jamoa o'z samarasini beradi, samarali tashkillashtirmasa, jamaonining rivojlanishidan ko'ra tanazuli muqarrar bo'lib qolish ehtimoli yuzaga keladi. Albatta, pedagog o'z jamoasini shakllantirar ekan yetarlicha bilim va amaliyotga ega bo'lishi darkor. Pedagogika, psixologiya, bobokalonlarning fikrlari, yuqori malakali kadrlardan maslahatlar, jamoa prinsiplari yoritilgan ilmiy maqolalar, chet el mamlakatlarinnig samarali usullari jamoani shakllantirishda pedagogga ulkan yordamchi vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy-psixologik treninglar nazariyasi va metodikasi bo'yicha xorijlik mutaxassislardan V.Yu.Bolshakov, L.A.Petrovskaya, G.I.Zaxarova, N.M.Gadjiyeva L.M.Krol, A.G.Liders, K.R.Rodgers va boshqa ko'pgina olimlar izlanishlar olib borganlar. O'zbekistonlik olimlardan E.G'oziyev, V.Karimova, A.Sh.Bekmurodov, T.Golish, D.Xoshimova, Z.Nishonova,

M.Maxmudovalar ijtimoiy-psixologik treninglardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar xamda oliv ta'limda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, trening muayyan vaziyatlarga asoslangan xamkorlik va o'zaro ta'sir ko'rsatish muhitini hisoblanadi[13].

Ye.V.Sidorenkoning fikricha, **birinchidan**, trening - bu trener va qatnashchilarning nafaqat ijtimoiy-psixologik hodisalarni, balki qatnashchilar uchun shaxsan muhim bo'lgan vaziyatlarni tahlil qilish va o'zaro fikr almashish jarayoni hisoblanadi.

Ikkinchidan, trening - bu trener va ishtirokchilarning xamkorlik muhitida o'zaro bir-biriga ta'sir qilish jarayonidir. Bu o'ziga xos ijodiy vaziyat bo'lib, qatnashchilar trener bilan birgalikda yangi ma'lumotlarni, texnika, texnologiyalarni o'zlashtiradilar xamda yangilikni birga yaratadilar. Trening o'zida uchta ta'lim strategiyasini mujassam etadi: axboriy, muammoliizlanuvchan, o'yin. A.G.Lidersning ta'rifi bo'yicha trening yaxlit didaktik jarayonning muhim unsurlaridan biri va o'rganilayotgan muammoga vaziyatli yondashuv asosiy "ta'lim birligi" hisoblanadi. **Treningning ta'limiy maqsadlari:**

- o'rganilayotgan ta'limiy muammoga nisbatan qiziqishni oshirish;
- tinglovchilar faolligi rag'batlantirish va mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish;
- tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, o'zaro muloqot muhitini yaratish;
- xamkorlik, empatiya muhitini yuzaga keltirish va tinglovchilarda ijtimoiy sifatlarni, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish va boshqalar[21].

Ishtirokchilarining nazari bilan baholash imkoniyatlarini yaratish hisoblanadi. Bu har bir ishtirokchining treningdan olib ketadigan eng qimmatli tajribasi bo'lishi mumkin. Boshqaruv sohasi kadrlari bilan o'tkaziladigan treninglarga bir qator didaktik talablar qo'yiladi. Trening konseptual mazmunga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, o'rganilayotgan vaziyat ma'lum bir konsepsiyasiga asoslanishi shart[14]. Treningda o'zlashtirilishi va ishlab chiqilishi kerak bo'lgan boshqaruv kompetensiyasining modeli, tuzilishi, dasturi oldindan puxta tayyorlanishi kerak[22].

Masalan, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda uning tarkibiy qismlari aniq belgilanishi lozim. Shu bilan birga treningda uni shakllantirishning eng maqbul usullarini tanlash mumkin, ya'ni keyslardan foydalanish, bahs-munozara o'tkazish yoki o'yinlar texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin[15].

Treninglarda trener va tinglovchilarning o'zaro faoliyatining interfaollik muhitida olib borilishiga e'tibor qaratish muhim. Tinglovchilar doimiy ravishda fikr-mulohazalar bildirishlari, o'zgalarni tinglashlari lozim. Chunki aynan o'zaro fikr almashish davomida tinglovchilar yangi tajriba orttiradilar[23]. Ta'lim jarayoni texnologik xaritasining ishlab chiqilganligi, trening bosqichlari, ajratilgan vaqt, didaktik materiallar, kompyuter jamlanmasi, ishtirokchilar harakat algoritmi shular jumlasiga kiradi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatida jamoani shakllantirishning o'ziga xos bosqichlari mavjud. Bolalar jamoasining shakllanishining 4 bosqichi mavjud. Jamoaning shakllanish

bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruhgaga talab qo‘yadi xamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Albatta talab bugungi kundan kelib chiqqanligi, zamonaviy ruhda bunyod bo‘lgani, qadriyatlargaga amal qilingani, o‘gitlar zamirida shakllangani, shaxsni rivojlanishiga tom ma’noda ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi talabning mohiyatini olib beradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jarayon mohiyatini quyidagicha bayon etish mumkin[16]:

Endi bariga to‘xtalib, xulosalab olsak. Demak, birinchi bosqichda talab faqat o‘qituvchilar tomonidan qo‘yiladi. Bu boshlang‘ich nuqta. Bunda hali jamoa shakllanmay, tashkil etiluvchi birlik hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan talablarga e’tiborsiz qaraydilar.

Jamoa a’zolarining o‘zaro birlashishi va yagona maqsad yo‘lidagi harakati orqali jamoa shakllanadi.

Yuqori malakali pedagogning asosiy maqsadi jamoani qaror toptirishdan iborat bo‘lmay, aksincha faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni oldindan rejalashtirish, jamoa a’zolarida ma’suliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, ishchanlik munosabatining paydo bo‘lishi, jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni uyg‘otishdan iborat bo‘lmog‘i darkor[17]. Biroq yetarlicha malakaga ega bo‘limgan kadrning bu bosqichdagi asosiy maqsadi oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo‘ladi. Bu bosqichda talab va maqsad bilan bir qatorda jamoa faoli(aktivi) aniqlanishi darkor. Jamoa faollari shunday a’zolarki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o‘qituvchi talabi va taklifiga xayrihohlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Ular o‘qituvchining yaqin yordamchisi sifatida faoliyat yuritadilar.

Jamoani shakllantirishning ikkinchi bosqichida jamoa faolining o‘qituvchi talabini qo‘llab-quvvatlash xamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan ifodalandi. Endilikda o‘qituvchi tomonidan jamoa shakllangan va endigi navbatda pedagog jamoada paydo bo‘lgan va u bilan aloqador muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy va amaliy ishlarni olib borib bu ishga uni jalg‘etadi. Bu bosqichda jarayon biroz murakkablashib boradi, ya’ni jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o‘ta boshlaydi. Bu bosqichda tadbirlar o‘tkazishga tayyorgarlik, uni o‘tkazish xamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamaoa xususiyatlarining ijobjiy o‘sishiga yordam beradi[18].

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining axamiyati katta.

Shu o‘rinda A.S.Makarenko shunday degan edi: “Jamo faoli bu-jamo vijdoni”. To‘g‘ri jamoa faoli bir qancha imtiyozlarga ega bo‘lishi bilan birga, unnig zimasida vazifalar xam o‘z o‘rniga egadir. Jamoani rivojlantirishning uchinchi bosqichi anchagini sermahsul bosqich[19].

Kulosa. A.S.Makarenko fikriga qarab tashxis qiladigan bo‘lsak, bu bosqichda jamoa faol bo‘lmaganlar bilan ishlaydi, ya’ni “ayrim o‘zini chetga olib qochuvchi, injiq shaxslar”ga talab qo‘ya boshlaydi. Bu bosqichda ijtimoiy fikr muhim axamiyat kasb etadi. O‘qituvchi aniq maqsad yo‘lidagi harakatlarini izchil olib borsagina ijtimoiy fikrga erishishi mumkin[20].

Shu maqsadda tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakatni jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali ommaviy axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil qilinadi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, ularda ijodiy mahoratni shakllantirish uchun samarali metod va uslublardan foydalanadi. Jamoani shakllantirishning uchinchi bosqichi haqidagi ko'rsatkichlardan xulosa qilinadigan bo'lsa, pedagog faqatgina jamoa faoligagina talab qo'ymasdan, aksincha jamoaning barcha a'zolariga axloqiy mazmundagi talabni qo'ya boshlaydi.

Adabiyotlar:

1. XUDOYQULOVA, S., & SAYDALIYEVA, M. (2023). The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in A Child. Eurasian Scientific Herald, 21, 54-58.
2. Sh, K. (2022). PSYCHOLOGICAL METHOD OF DEVELOPING CHILDREN'S BEHAVIOR AND EMOTION. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 107-112.
3. XUDOYQULOVA, S., & SAYDALIYEVA, M. (2023). The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in A Child. Eurasian Scientific Herald, 21, 54-58.
4. Жумаева, Г. Т. (2019). ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. In НАУЧНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И ОТКРЫТИЯ 2019 (pp. 188-190).
5. Жумаева, Г. Т. (2016). Современные технологии обучения учащихся. Евразийский научный журнал, (6), 456-458.
6. Жумаева, Г. Т. (2019). Основные тенденции развития педагогического мастерства учителя. Педагогическое образование и наука, (5), 9-11.
7. Tursunpolatovna, J. G. (2021). The use of innovative approach techniques in improving the pedagogical skills of teachers. World Bulletin of Social Sciences, 1(1), 18-20.
8. Tursunpulatovna, J. G. (2022). A model for the development of the professional culture of school teachers based on a competency-based approach. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 212-219.
9. Khimmataliev, D. O., Khakimova, M. F., Khamidov, J. A., Abdullaeva, R. M., & Daminov, L. O. Improving the professional competence of professional teachers, мақола. Journal of Critical Review, (103).
10. Khimmataliev, D. O., Olmov, K. T., Abdullaeva, R. M., Ergashev, B. B., & Chulponova, K. T. (2021). Mechanisms of professional competence development in future teachers

- based on pedagogical and technical knowledge. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2950-2958.
- 11.Абдуллаева Р. Лидерлик ва раҳбарлик сифатларининг боғлиқлик жиҳатлари. Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплар. 2019:255-6.
- 12.Абдуллаева , Р. (2022). ТАЪЛИМДА ТАЛАБАНИНГ ИНДИВИДУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1986>.
- 13.Usmanovna, A. N. (2021). The role of parents in the upbringing of children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1995-1999.
- 14.Nargiza Alimova Usmonovna. (2022). RAISING CHILDREN IS THE BIGGEST RESPONSIBILITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1524–1529.
- 15.Usmonovna, A. N. (2022). FARZAND RUHIY TARBIYASIDA OTA-ONANING MA'SULLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B3), 477-480.
- 16.Usmanovna, A. N. (2022). Parental Relationship in Child Raising Psychological Properties. Eurasian Scientific Herald, 14, 13-16.
- 17.Sharafutdinova, K. G. (2020). Destruction of family relations psychoprophylaxis family-neighborhood-educational institution cooperation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1000-1007.
- 18.Шарафутдинова, X. Г. (2021). OILADA DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 231-236.
- 19.Sharafutdinova, K. G. (2021). THE ROLE OF TEMPERAMENT IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND DESTRUCTIVE INDIVIDUAL RELATIONSHIP STYLE. Theoretical & Applied Science, (8), 210-214.
- 20.Gulyamutdinovna, S. K. (2021). Manipulative relationship of a destructive person in the family. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 175-179.
- 21.Sharafutdinova, K. (2022). Advantages of focusing on positive psychology in eliminating destruction of family relations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 423-430.
- 22.Sharafutdinova, K. (2022). Application of psychological methodologies in diagnosis of personal destruction.
- 23.Gulyamutdinovna, K. S. (2022). APPLICATION OF COGNITIVE PSYCHOTHERAPY IN THE DESTRUCTION OF FAMILY RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 5-10.